

Journal of Innovation and Economic Development". Pages 30-35, February 2020.

3. Anders Lindgren -Yevroobligatsiyalarning nazariy asoslari., 2011.

3. Бобров Д. Еврооблигации - как это сделано на РТС // Рынок ценных бумаг. - 2002. - №16. - С. 44 – 46

4. <https://www.world-exchanges.org/>

5. [www.uzse.uz](http://www.uzse.uz)

## **ISLOM MOLIYASI VOSITALARI ORQALI INKLUYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING O'zbekistonda joriy etish istiqbollari**

**Nurullayeva Lobar Nurbek qizi**  
*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi*  
*"Iqtisodiyot" mutaxassisligi magistranti*

**Sodiqov Zokir**  
*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi*  
*"Islam iqtisodiyoti va moliyasi,*  
*ziyorat turizm" kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda O'zbekistonda inklyuzivlikni ta'minlashda Islom moliyasi vositalarining o'rni va istiqbollari tahlil qilindi. Islom moliyasining ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslanganligi, moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan qatlamlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish imkoniyatini yaratadi. Xususan, O'zbekistonda moliyalashtirish jarayonida Islom moliyasi instrumentlari orqali kambag'allikni kamaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish mexanizmlari ko'rib chiqildi. O'zbekistonda Islom moliyasi vositalarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xususan zakot, vaqf va qarzi-xasan kabi mexanizmlarni qo'llash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** inklyuzivlikni ta'minlash, Islom moliyasi, zakot, vaqf, qarzi-xasan, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik.

Global miqyosda moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1,4 milliard kishi hali ham rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu holat dolzarb hisoblanadi. Islom moliyasi esa aynan mana shunday muammolarni bartaraf etishda samarali mexanizmlarni taklif etadi. Islom moliyasining asosiy tamoyillari bo'lgan foizsiz iqtisodiyot, xatarlarni adolatli taqsimlash va real aktivlarga asoslangan operatsiyalar moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan qatlamlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Mazkur tamoyillar kambag'allikni kamaytirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgani bilan ajralib turadi. O'zbekistonda Islom moliyasi hali to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, mamlakatimizda inklyuziv moliyalashtirish tizimini

rivojlantirish uchun Islom moliyasi vositalaridan foydalanish istiqbollari yuqori hisoblanadi. Zakot, vaqf va qarzi-xasan kabi mexanizmlar moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan qatlamlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etishda, inklyuzivlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Zakot – ehtiyojmand qatlamlarni bevosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. Malayziyada zakot jamg'armalari orqali minglab oilalar ish bilan ta'minlanib, kichik biznes subyektlari faoliyatini boshlashiga zamin yaratilgan.

- Vaqf – xayriya va ijtimoiy manfaat uchun ajratilgan mol-mulk bo'lib, uning daromadi jamiyat ehtiyojlarini uchun sarflanadi. Saudiya Arabiston va Turkiyada vaqf mulklari orqali ta'lim, sog'liqni saqlash va tadbirkorlikni rivojlantirish loyihalari amalga oshirilgan.

- Qarzi-xasan – foizsiz qarz mexanizmi bo'lib, u O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Indoneziyada ushbu mexanizm kambag'allik darajasini sezilarli kamaytirishga xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-son Farmoni bo'yicha «Vaqf» xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Bugungi kunda xayriya jamoat fondi nafaqat vaqf balki zakot, ushr, fitr va fidya bo'limlarini ham o'z ichiga olgan holda o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Hozirgi kunda fondning har bir bo'limi uchun banklarda alohida hisob raqamlari mavjud. Masalan, zakot uchun ajratilgan mablag' bevosita zakot bo'limiga tushadi. Fond mablag'lari faqat vaqf mulkidan iborat bo'lmay, masjidlar va diniy ta'lim muassasalari qurilishi va ta'miriga, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni yordamga yo'naltiriladi. Bu esa O'zbekiston moliya tizimida inklyuzivlikni ta'minlab, ehtiyojmand qatlamlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi va ijtimoiyadolat hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni ilgari suradi:

1. Huquqiy baza yaratish: Islom moliyasi institutlarini qonunchilik bilan mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Xususan, islom moliya tashkilotlarni yaratish orqali ijtimoiy yordamning barqaror tizimi yaratilishi mumkin.

2. Mikromoliyalashtirish institutlarini rivojlantirish: Islom moliyasi asosida mikromoliyalashtirishni kengaytirish kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Malayziya va Indoneziyada mikrofinans institutlari orqali kichik biznes subyektlariga moliyaviy yordam berilib, ularning iqtisodiy faolligi oshirilgan.

3. Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Aholi va tadbirkorlarni Islom moliyasining afzalliklari va imkoniyatlari haqida xabardor qilish orqali bu tizimning samaradorligini oshirish mumkin.

4. Hamkorlikni rivojlantirish: Xalqaro moliyaviy institutlar va Islom moliyasi tashkilotlari bilan hamkorlikda investitsiyalar jalg qilish orqali O'zbekistonda Islom moliyasi tizimini rivojlantirish mumkin.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Islom moliyasi vositalari orqali moliyaviy qamrovni kengaytirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari yanada ortadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:**

1. Jahon bankining 2021-yildagi hisoboti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-sod Farmoni.
3. Mirakhор, Abbas and Iqbal, Zamir. "Financial Inclusion: Islamic Finance Perspective", 2012.
4. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
5. [www.imv.uz](http://www.imv.uz)
6. [www.vaqf.uz](http://www.vaqf.uz)

## **OILAVIY BIZNES MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA KAPITAL JALB ETISH**

*Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li  
TDIU, dotsent v.v.b*

Oilaviy biznes ko'plab davlatlar iqtisodiyotida etakchi o'rinn egalaydi. Chunki har qanday davlat farovonligining asosini oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik sektori belgilab beradi. Bu borada Amerika, Osiyo va Yevropa mamlakatlarining ilg'or tajribalarini ko'rsatib o'tish mumkin. Buyuk Britaniyada u barcha firmalarning 75 foizini qamrab olib, aholining yarmini ish bilan ta'minlaydi va YaIMning qariyb 50 foizini ishlab chiqaradi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida barcha korxonalarning 85%, AQShda esa 90%ini oilaviy korxonalar tashkil etadi. Italiyada 2 3 kishidan iborat oilaviy hunarmandchilik korxonalari jami eksportning 18 foizini tashkil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ilg'or mamlakatlardagi har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar oilaviy hisoblanadi.

"Jahon bozorida ko'p millatli oilaviy korxonalarga kapital bilan kirish ko'pchilik mahalliy firmalar bilan solishtirganda o'z kapitali va qarz narxini pasaytirish imkonini beradi"<sup>372</sup>. Bu, shuningdek, katta miqdordagi yangi mablag'larni jalg qilish zarur bo'lganda ham, ko'p millatli oilaviy korxonalarga kerakli qarz nisbatini saqlab qolishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, ko'p millatli firma kapitalining marjinal qiymati uning kapital byudjetining sezilarli diapazonlari uchun doimiyidir. Ushbu bayonot ko'pchilik kichik mahalliy firmalar uchun to'g'ri emas, chunki ular milliy kapital yoki qarz bozorlariga kirish

<sup>372</sup> <http://lib.rosdiplom.ru/library/prosmotr.aspx?id=498259>